


## 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar

(dastlabki ma'lumotlar)


2018 yil yanvar-sentyabrda Toshkent viloyati bo'yicha asosiy kapitalga 5556,5 mlrd. so'm miqdorda investitsiyalar o'zlashtirilib o'tgan yilga nisbatan 148,7 foizga oshdi. Shundan, xorijiy investitsiyalar 242,6 mlrd.so'mni tashkil etib o'tgan yilga nisbatan 154,8 foizni tashkil etdi. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar 2018 yilning yanvar-sentyabr oylari holatiga 1932,9 ming so'mni tashkil etdi.

### **2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar miqdori.(Mlrd.so'mda).**



Toshkent viloyatida 2018 yil 3-chorak holatiga hududlar kesimida asosiy vositalarga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkich Olmaliq shaharda – 1178,1 mlrd. so'm, Angren shaharda – 621,0 mlrd. so'm, Zangiota tumanida – 483,4 mlrd. so'm, Ohangaron shaharda - 436,5 mlrd. so'm, Qibray tumanida - 424,3 mlrd. so'm, Bekobod shaharda – 326,7 mlrd. so'm kuzatildi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiyalar hajmining hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Ohangaron shaharda - 11893,1 ming so'm, Olmaliq shaharda - 9196,4 ming so'm, Bekobod shaharda - 3494,5 ming so'm, Angren shaharda - 3365,7 ming so'm, Nurafshon shaharda - 3064,5 ming so'm va Zangiota tumaniga - 2495,6 ming so'm to'g'ri keldi.




## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi


	<i>mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, foizda</i>	<i>Yakunga nisbatan, foizda</i>
<b>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar</b>	<b>5556,5</b>	<b>148,7</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>1467,5</b>	<b>158,1</b>	<b>26,4</b>
byudjet mablag'lari	150,0	77,4	2,6
davlat maqsadli fond mablag'lari	245,4	248,3	4,5
tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari	796,3	259,0	14,3
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	275,8	84,1	5,0
<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	<b>4088,4</b>	<b>145,7</b>	<b>73,6</b>
korxonalarining o'z mablag'lari	1745,5	129,7	31,5
aholi mablag'lari	645,3	120,4	11,6
to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	286,9	115,1	5,2
tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	1410,7	211,7	25,3



## 2018 yil yanvar-sentyabr oylari uchun asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari (mlrd.so'mda)



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalarining markazlashgan investitsiyalar qismining eng ko'p ulushi tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari hisobiga to'g'ri keldi. Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari 796,3 mlrd.so'mni tashkil qilib, jami investitsiyalardagi ulushi 14,3 ga teng bo'ldi.



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalarining markazlashmagan investitsiyalar qismining eng ko'p ulushi korxonalarining o'z mablag'lari hisobiga to'g'ri keldi. Korxonalarining o'z mablag'lari 1745,5 mlrd.so'mni tashkil qilib, jami investitsiyalardagi ulushi 31,5 foizga teng bo'ldi.



## 2018 yil yanvar-sentyabrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi.

	<i>Jami</i>	<i>Foizi</i>
<b>Jami: mlrd so'mda</b>	<b>5556,5</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
qurilish-montaj ishlari	2386,6	43,0
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xohalik jixozlar	2932,8	52,8
boshqa xarajatlar	237,1	4,2

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibiga ko'ra 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xojalik jihozlari uchun harajatlar 2932,8 mlrd.so'mni tashkil qilib, umumiy hajmga nisbatan 52,8% ulushga ega bo'ldi.



*Investitsiya va qurilish  
statistikasi bo'limi boshlig'i  
K.A.Utalov.  
Telefon: 230-86-70, 230-86-71.*